



UDK:811.523

Malika ABDULXAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, PhD
E-mail:stalker.malika@gmail.com

F.f.d M.Kurbanova taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDA SINONIMIK MUNOSABATLAR VA ULARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Аннотация

Ushbu maqola o'zbek tilidagi sinonimik munosabatlar va ularning leksikografik talqiniga bag'ishlangan. Shuningdek, sinonimlarning qaysi turga mansubligini aniqlashda lug'atlardagi izohlarning mukammalligi muhim omil sifatida tahlil qilinadi. **Kalit so'zlar:** izohli lug'at, sinonim, sinonimiya, sinonimik qator, kvazi-sinonim, graduonimiya, leksema.

SYNONYMIC RELATIONS IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION

Annotation

This article is devoted to the synonymic relations in the Uzbek language and their lexicographic interpretation. Furthermore, the importance of the completeness of dictionary definitions in determining the classification of synonyms is analyzed.

Key words: explanatory dictionary, synonym, synonymy, synonymic series, quasi-synonym, graduonymy, lexeme.

СИНОНИМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация

Данная статья посвящена синонимическим отношениям в узбекском языке и их лексикографической интерпретации. Кроме того, рассматривается важность полноты словарных толкований при определении принадлежности синонимов к тому или иному типу.

Ключевые слова: толковый словарь, синоним, синонимия, синонимический ряд, квазисиноним, градуонимия, лексема.

Kirish. Hozirgi kunda adabiy tilimizning lug'at tarkibi asosan fan-texnika sohasida amalga oshirilayotgan kashfiyotlar natijasida yuzaga kelgan leksik vositalar bilan boyidi. "Tashqi manba asosida lug'at boyligining kengayishi o'zbek tili doirasida 30-35% ni tashkil etadi". Demak, chetdan o'zlashtirilgan internatsional (baynalmilal) so'zlar lug'atlarimiz tarkibida ko'paygan. Albatta, bu o'zlashgan so'zlar faqatgina oxirgi yillarda sodir bo'lmadi, ular yillar davomida qo'shilib kelgan, shuningdek, lug'atlarimizdagi so'zlarning ayrimlari hattoki, arxaiqlashdi, iste'moldan chiqib ketganlari ham mavjud. Tilshunos olimlar G'.Abdurahmonov va S.Mamajonovlar o'zbek adabiy tilining leksikografiyasi bo'yicha tadqiqot olib borishgan bo'lib, o'zbek tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni tizimlashtirgan holda quyidagicha tavsiflashgan:

arab tilidan o'zlashgan so'zlar;

fors-tojik tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar;

1917 yilgi oktabr to'ntarishidan keyin o'zbek tilida paydo bo'lgan rus-baynalmilal so'zlar.

Yuqorida berilgan tavsif o'sha davr nuqtai nazaridan keltirilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng boshqa tillardan kompyuter, mashina kabi juda ko'p so'zlar kirib kela boshladi. Demak, hozirgi lug'at tarkibimizdagi boshqa tillardan o'zlashgan leksemalar to'rtinchi tavsifni kiritishimiz kerakligini ko'rsatadi.

Lug'atlar so'zning biror sohaga oid leksika bilan, adabiy til leksikasining ma'lum qatlami bilan chegaralanganligi yoki chegaralanmaganligiga ko'ra ikki asosiy guruhga ajraladi: 1) umumiy lug'atlar; 2) maxsus lug'atlar.

Adabiy tilning barcha sohaga, barcha qatlamga oid leksikasi umumiy lug'atlarda o'z ifodasini topadi. Bunday lug'atlarda chegaralangan talab bo'lmaganligi uchun nom

berish muallif maqsadiga ko'ra belgilanadi. Masalan, umumiy lug'atlar turkumiga kiruvchi quyidagi lug'at nomlari fikrimizga dalil bo'ladi: Sh.Butayev, A.Irisqulov "Inglizcha-o'zbekcha va o'zbekcha-inglizcha lug'at", A.Madvaliyev tahriri ostida "O'zbek tilining izohli lug'ati" kabi.

Maxsus lug'atlarda berilgan so'zlar biror sohaga yoki ma'lum bir qatlamga doir leksemalar bilan chegaralangan bo'ladi. Bunday lug'at nomlarida ma'lum bir soha bilan chegaralanadi. Bunga Azim Hojiyevning "Lingvistik terminlar izohli lug'ati", "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati", "Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati"; Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"; H.Homidiy., Sh.Abdullayeva., S.Ibrohimovalarning "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" va shu kabi nashrlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

"Maxsus lug'atlar, so'zligining qanday maqsadga ko'ra chegaralanganligiga qarab, uch tipga bo'linadi: 1) leksik qatlamlar lug'ati; 2) leksik tanlangan lug'at; 3) terminologik lug'at. Leksik qatlamlar lug'atiga so'zligi sinonimlar, omonimlar, antonimlar, qo'shma so'zlar, juft so'zlar, tabu—evfemizmlar, frazeologik birliklar, o'zlashma so'zlardan tashkil topgan lug'atlar kiradi. Leksik tanlangan lug'atlarga so'zligi biror asar, biror yodgorlik yoki biror avtor tomonidan qo'llangan so'zlardan tashkil topgan lug'atlar kiradi. Terminologik lug'at maxsus lug'atlarning so'zligi biror fan yoki biror kasbga oid terminlardan iborat bo'lgan tipidir. Leksik qatlamlar lug'ati o'zbek tilida bir necha tiplarda yaratilgan. Ulardan biri 1962-yili Toshkentda nashr etilgan. "O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati"dir. "U akademik A.Hojiyev tomonidan izohli lug'at shaklida tuzilgan. Lug'at o'z ichiga 1700 so'zdan iborat 466 sinonimik qatorni oladi. U to'rt qismdan tashkil topib, nazariy qism, sinonimlarning

ma'nolarini xarakterlovchi izohli qism, sinonimik qatorlar ro'yhati qismi, sinonimik so'zlarning alfavit tartibidagi ro'yhati – mundarija o'rnidagi qismlardan iboratdir. Lug'atdan kuzatilgan maqsad sinonimlarning qatorini aniqlab berish, ularni birlashtiruvchi yetakchi ma'noni ko'rsatish va bir sinonimik qatordagi sinonimlarning ishlatilish doirasiga ko'ra nozik farqlanishlarini ajratuvchi yo'qlanma, ya'ni izohlar berishdir. Uning to'ldirilgan ikkinchi nashri 1974 yil bosilib chiqdi".

Mazkur lug'atda muallif A.Hojiyev har bir leksik sinonimlar nimalardan tashkil topganligi quyidagicha izoh berib ketgan:

"1) sinonimik qator;

2) sinonimik qatordagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noning izohi;

3) sinonimik qatordagi har bir so'zga xos xususiyatning ta'rifi;

4) sinonimik qator va har bir sinonimga berilgan ta'rifi tasdiqlovchi misol-sitatalar. SHE'riy asarlardan olingan parchalarda misralar ketma-ket yozildi, misra boshidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlandi". Shuningdek, lug'atda berilgan sinonimik qatorlarning ba'zilarida graduonimiya hodisasi mavjud bo'lib, bu o'quvchiga nutqda har bir konkret holatni hisobga olgan holda ana shu so'zlardan muvofiq'ini qo'llash, fikrning aniq ifodasi uchun ma'lum darajada yordam beradi. "Masalan, avval, ilgari, oldin, burun, qadim so'zlari «o'tgan vaqtlar(da), hozirgi vaqtga qadar» ma'nosini bildiradi. Bulardan ilgari so'zi avval, oldin so'zlariga nisbatan uzoqroq o'tmishni bildiradi. Burun so'zi ilgari so'ziga nisbatan ham uzoqroq o'tmishni, qadim so'zi burun so'ziga nisbatan ham uzoqroq o'tmishni bildiradi. Lekin bu nisbatan yaqin o'tmishni ifodalashda avval, undan uzoqroq'ini ifodalashda, albatta, ilgari, undan ham uzoq'ini ifodalashda, albatta, burun, yana ham uzoq'ini ifodalashda, albatta, qadim so'zi qo'llanadi degan gap emas. Har qanday uzoq o'tmishni ifodalashda avval, ilgari so'zlaridan foydalanish mumkin. Lekin ilgari, burun, qadim so'zlari ko'rsatib o'tilgan xususiyatga ega". Demak, sinonimlar qatoridan kerakli so'zni tanlashda davr, makon katta rol o'ynaydi. Professor N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "sinonimik qatorlar – tildagi intensivlik semantik kategoriyasining ifodalanishidagi faol unsurlardan biri. Muayyan belgi-xususiyatning intensiv, kuchli ifodalanishi, belgi-xususiyatning kuchli-kuchsiz ifodalanishi tarzida qarshilantirilishi va bunda sinonimlarning ishtiroki tildagi real hodisalardandir. A.Hojiyev intensivlik va sinonimiya munosabati va mohiyatini aniq ko'rsatib beradi. Uning fikricha, "sinonimlar bildiradigan vaqt, harakat, belgi, miqdor kabilarda ularning har birida belgining darajasi har xil bo'lishi mumkin". Biroq shuni alohida qayd etish lozimki, graduonimiya hodisasida har doim ham sinonimik qator shakllanmaydi. Bu haqida M.Hakimova quyidagilarni ta'kidlaydi: "Graduonimik qatordagi bir-biriga yaqin leksemalarda ma'noviy yaqinlik kuzatiladi va bu semantik yaqinlik sinonimiya darajasida bo'lishi ham mumkin: achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrulanmoq. Graduonimik qatordagi bir-biridan uzoq joylashgan leksemalarda farqlilik

kuchayib boradi. Qatorning boshi va oxirida joylashgan leksemalardagi farqlilik (ziddiyat) antonimiyagacha yetib borishi mumkin: yomon — qoniqarli — yaxshi".

Graduonimiya (darajalanish) hodisasi ko'plab buyuk mutafakkirlarimiz, jumladan, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning g'azal va ruboiylaridan joy olganligini ko'rishimiz mumkin. Darajalanish hodisasi tilshunoslikda tadqiqot obyekti sifatida o'zbek tilshunosligida 1989 yilda so'zlararo ma'noviy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida talqin etilib, unga graduonimiya hodisasi deb nom berildi – "...o'zbek tilshunosligida lisoniy ma'noviy munosabatni aks ettiruvchi sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabilarning umumiy tarkibiy qismi bo'lgan - onimiya qismini lotincha gradu ("daraja", "bosqich") so'zi bilan birlashtirish asosida sun'iy ravishda yasaldi". Bu hodisa Sh.Orifjonovanning "O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya", O.Bozorovning "O'zbek tilida darajalanish" va J.Djumabayevaning "O'zbek va ingliz tillarida leksik hamda stilistik graduonimiya" nomli doktorlik dissertatsiyalarida atroflicha tadqiq qilindi.

J.Djumabayeva graduonimiya va sinonimiya hodisalari haqida fikr yuritir ekan, sinonimik qatorlar graduonimik qatorlarning bir qismi bo'la olishini misollar orqali tushuntiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib shunday deydi: "ingliz olimlari kiritgan va near-synonym deb nomlangan, boshqa tillarda esa ko'pincha kvazi-sinonimlar deb yuritilayotgan ma'nodosh leksemalar ham graduonimik qator hisol qila oladi. Kvazi-sinonimlar oddiy sinonimlarga nisbatan stilistik bo'yoqdorligi nuqtai nazaridan bir-biriga yaqin ma'nodosh so'zlardir. Masalan: qizg'anchiq, xasis, qurumsaq". Absolyut sinonimlardan farqli o'laroq, boshqa barcha sinonimlar, ayniqsa kvazi-sinonimlar o'ziga xos xususiyatlari bilan biri ikkinchisidan ishlatilish o'rniga ko'ra farq qiladi. Ana shu farqli jihatlarni izohli lug'atdan topamiz.

Sinonimlarning izohli lug'ati faqat tildagi sinonimik qatorlarni izohsiz yoki izoh bilan beruvchi manba hisoblanadi. Izohli lug'atda sinonimlarning o'ziga xos turli belgi-xususiyatlar to'laonli ochib berilishi bois, ilmiy tadqiqotlarda, tarjimashunoslikda va til o'qitishda, shuningdek, ko'plab boshqa sohalarida ham unga bo'lgan talab katta. Chunonchi, sinonimlarning farqli xususiyatlarini to'g'ri anglagan holda ularning keraklisini tanlab qo'llash fikrning aniq, maqsadga muvofiq ifodalanishiga yordam beradi. Shu o'rinda M.Mirtojiyevning fikriga tamomila qo'shilmalikning iloji yo'q: "So'z ishlatishda ko'proq ikkita muhim xato ko'zga tashlanadi: 1) so'zni o'rnida qo'llamaslik; 2) so'zni noo'rin qo'llash, takror. Bularning har ikkisi ham uslubda g'alizlik tug'diradi, o'quvchining g'ashiga tegadi, siyqallashtiradi".

Shu kungacha o'zbek tilida sinonimlarning tadqiqi keng miqyosda olib borilgan bo'lsada, yuqoridagi fikrlar va ularga munosabatlar turli tuman ekanligiga qaramasdan, yaqin yillargacha faqatgina o'zbek lug'atchiligidagi sinonimiyaga bag'ishlangan yagona jiddiy asar A.Hojiyevga tegishli deb qarab kelingan.

ADABIYOTLAR

1. Nazarov P. O'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar xususida. Xorijiy filologiya jurnali. 4-son, 2019. – B.54.
2. O'zbek tili leksikologiyasi. – Uzbekiston SSR Fan, 1981. – B.300-301.
3. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. – B.6.
4. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. N. Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023. – B.5-6.
5. Hakimova M. Semasiologiya. – Toshkent, 2008. – B.82.
6. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1989. №6. – B.37.
7. Djumabayeva J. O'zbek va ingliz tillarida leksik hamda stilistik graduonimiya. Filol.fan.nom....avtoref. – Toshkent., 2016. – B.17.
8. Mirtojiyev M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 1992. – B.30.



G'ulomjon ABDUPATTAYEV,
Qo'qon universiteti o'qituvchisi
E-mail: abdupattayevgulomjon98@gmail.com

DSc, professor D.Halilova taqrizi asosida

NABIJON BOQIYNING “BIR MUHABBAT QISSASI”DA NUTQIY KOMPOZITSIYANING BADIY FUNKSIYASI

Annotatsiya

Maqolada Nabijon Boqiyning “Bir muhabbat qissasi” asarida nutqiy kompozitsiyaning badiiy funksiyasi tahlil qilingan. Asarda muallif nutqi, qahramonlarning monolog va dialoglari, tasviriy bo'yoqlar hamda lingvopoetik vositalar uyg'unlashib, qahramonlarning ruhiy olami, xarakteri va syujet rivoji ochib beriladi. Tadqiqotda Baxtin, Lotman, Genette kabi nazariyotchilarning qarashlari hamda o'zbek adabiyotshunosligida nutqiy kompozitsiya masalalariga oid manbalar asos sifatida olingan. Tahlillar natijasida nutqiy kompozitsiya qissada nafaqat voqealar bayonini tartibga soluvchi vosita, balki sevgi mavzusini falsafiy darajaga ko'taruvchi, obrazlarning psixologik kechinmalarini ochuvchi hamda o'quvchiga estetik zavq beruvchi muhim badiiy mexanizm ekani aniqlangan.

Kalit so'zlar: Nutqiy kompozitsiya, dialog, monolog, muallif nutqi, lingvopoetika, obraz psixologiyasi, badiiy funksiya, o'zbek nasri.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФУНКЦИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПОЗИЦИИ В ПОВЕСТИ НАБИДЖОНА БАКИЙНА «ИСТОРИЯ ОДНОЙ ЛЮБВИ»

Аннотация

В статье анализируется художественная функция речевой композиции в произведении Набиджона Бакийна «История одной любви». Авторская речь, монологи и диалоги персонажей, изобразительно-выразительные средства и лингвопоэтические элементы взаимодействуют в едином художественном пространстве, раскрывая внутренний мир и характер героев, а также развитие сюжета. В исследовании используются концепции М.М. Бахтина, Ю.М. Лотмана, Ж. Женетта и труды узбекских литературоведов, посвященные вопросам речевой композиции. В результате анализа установлено, что речевая композиция в повести выступает не только как средство организации повествования, но и как важный художественный механизм, поднимающий тему любви на философский уровень, раскрывающий психологические переживания персонажей и обеспечивающий эстетическое воздействие на читателя.

Ключевые слова: Речевая композиция, диалог, монолог, авторская речь, лингвопоэтика, психология образа, художественная функция, узбекская проза.

THE ARTISTIC FUNCTION OF SPEECH COMPOSITION IN NABIJON BOQIY'S STORY “A LOVE TALE”

Annotation

This article analyzes the artistic function of speech composition in Nabijon Boqiy's story “A Love Tale.” The author's narration, the characters' monologues and dialogues, as well as figurative and linguopoetic devices, are interwoven to reveal the protagonists' inner world, character traits, and the development of the plot. The study draws upon the theoretical views of Mikhail Bakhtin, Yuri Lotman, and Gérard Genette, as well as Uzbek literary scholarship on speech composition. The analysis demonstrates that speech composition in the story functions not only as a structural device organizing the narrative, but also as an artistic mechanism that elevates the theme of love to a philosophical level, uncovers the characters' psychological experiences, and provides the reader with deep aesthetic pleasure.

Key words: Speech composition, dialogue, monologue, author's narration, linguopoetics, character psychology, artistic function, Uzbek prose.

Kirish. Qissalarda inson ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi, ijtimoiy-maishiy hayoti, orzu-umidlari aks etadi. Qissalar ham hayotning yozuvchi ongidagi in'ikosi tariqasida maydonga keladi. Qissa yaratish jarayoni hayotni o'rganish, undan ma'lum xulosa va saboqlar chiqarish, hayotiy va jonli tushunchalardan dars olish, hayotni qayta qurish jarayonidir. Yozuvchi yaratgan badiiy asarning muvaffaqiyati uning kompozitsiyasi bilan bog'lanadi. Adabiyotshunoslikda badiiy asarning kompozitsion xususiyatlari ko'pincha uning estetik qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Nutqiy kompozitsiya esa badiiy matnning estetik ta'sirchanligini ta'minlaydigan eng muhim unsurlardan biridir. Nabijon Boqiyning “Bir muhabbat qissasi” asari ham o'ziga xos nutqiy-kompozitsion tuzilishi bilan ajralib turadi.

Kompozitsiya so'zi lotincha “komponere” so'zidan olingan bo'lib, “tuzmoq”, “joylashtirmoq”, “to'qimoq” degan ma'nolarni anglatib, bir butun yaxlitlik ma'nosini anglatadi. Demak, kompozitsiya har qanday badiiy asarning asosiy qismlaridan biri bo'lib, ijod mahsuliga yagona birlik va umumiylikni taqdim etadi, uning elementlarini bir-biriga mos kelishini ta'minlaydi. Badiiy klassik adabiyotda eng ko'p tarqalgan kompozitsion tur bu rivojlanish (oshib borish, o'sish) kompozitsiyasi hisoblanadi, u bir nechta murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladigan komponentlardan iboratdir. Haqiqatan ham, badiiy asarda kompozitsiya u yoki bu ijodiy ishning ketma-ketligini, mantiqiy davomiyligini tartibga keltiruvchi asosiy belgilardan biridir.

Nabijon Boqiy o'zining “Bir muhabbat qissasi” asari orqali zamonaviy o'zbek adabiyotida inson ruhiyati, muhabbat

va ijtimoiy munosabatlar muammolarini o'ziga xos uslubda tasvirlaydi. Asar poetikasida muallifning nutqiy kompozitsiya qurilishiga alohida e'tibor qaratgani ko'zga tashlanadi. Bu esa qissa mazmunining o'quvchi ongiga chuqurroq singishini, obrazlararo munosabatlarning tabiiy va jonli ko'rinishda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Nutqiy kompozitsiya — bu nafaqat badiiy matnning tashkiliy tuzilishi, balki uning ma'no yukini ochuvchi vositadir. Tadqiqotchi Mo'minova T.S. ta'kidlaganidek, “badiiy asar tili adabiy asarning mazmunini ro'yobga chiqaruvchi birdan-bir vositadir”. “Bir muhabbat qissasi”da voqealarning izchilligi, dialog va monologlarning uyg'unligi, muallif nutqi bilan qahramonlar nutqining bir-birini to'ldirishi asarning badiiy funksiyasini kuchaytiradi. Shu jihatdan mazkur qissadagi nutqiy kompozitsiyani tadqiq etish nafaqat Nabijon Boqiy ijodining badiiy xususiyatlarini yoritishda, balki zamonaviy adabiyotimiz poetikasini chuqurroq o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada “Bir muhabbat qissasi”da nutqiy kompozitsiyaning qanday shakllarda namoyon bo'lishi va uning badiiy funksiyasi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Nutqiy kompozitsiyani o'rganishda M. M. Baxtinning dialogizm nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, badiiy matnning estetik kuchi turli ovozlari, nutqiy pozitsiyalar va muloqot shakllarining uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, Y. M. Lotman badiiy matnni semiotik tizim sifatida talqin qilib, uning kompozitsiyasi matn ichidagi ichki strukturalar orqali tashkil topishini qayd etgan. G. Genette esa narratologik yondashuvda kompozitsiyani vaqt, voqea va nutqiy qurilmalarning uyg'unligi orqali izohlaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida nutqiy kompozitsiya masalalari keng miqyosda o'rganilgan bo'lsa-da, Nabijon Boqiy ijodi, xususan, uning “Bir muhabbat qissasi”dagi badiiy nutq qurilishi alohida tadqiq etilmagan masalalardan biridir. Biroq umumiy nazariy manbalar va ayrim adiblar ijodi asosida olib borilgan tadqiqotlar ushbu mavzuni yoritishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, kompozitsiya va uning badiiy matndagi o'rni haqidagi nazariy qarashlarga to'xtalish zarur. Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov singari adiblar o'z asarlarida kompozitsiya orqali obrazlarning ruhiy kechinmalarini chuqur ochib bergan bo'lsalar, keyingi davr tadqiqotchilari nutqiy kompozitsiyani adabiy asar tuzilishining asosiy mezonlaridan biri sifatida e'tirof etadilar.

Badiiy nutqning kompozitsion qurilishi o'quvchi tafakkuriga bevosita ta'sir etadi. Chunki muallif nutqi va qahramon nutqi o'rtasidagi uyg'unlik asarning estetik ta'sirchanligini belgilovchi asosiy omillardandir. Shunday qilib, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, Nabijon Boqiyning “Bir muhabbat qissasi” asaridagi nutqiy kompozitsiyani tahlil etish orqali nafaqat adibning poetikasini, balki o'zbek adabiyotidagi kompozitsion usullarning badiiy funksiyasini ham ochib berish mumkin.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Nabijon Boqiy asarlarida real hayotiy voqealar tasviri, sodda va samimiy til, xalqona ifodalar keng qo'llanilganini alohida qayd etish zarur. Biroq “Bir muhabbat qissasi”dagi nutqiy kompozitsiyaning badiiy funksiyasi mustaqil ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Adibning “Bir muhabbat qissasi” asari nutqiy kompozitsiyaning badiiy funksiyasini belgilashda komparativ, strukturaviy va lingvopoetik tahlillardan foydalanildi.

Qissada qahramonlarning dialoglari va muallif nutqi orqali voqealar rivojini yanada aniqroq tushunish, obrazlarning psixologik olami teran anglanadi. Qissada xuddi kinolentalardagi lavha kabi asar boshida muallif obrazi va tasavvuri, tushunchasi ham ko'rinadi. Keyin esa bevosita asosiy

qahramon harakati tasvirlanadi. Buni quyidagi ekspozitsiyada kuzatish mumkin: “Yerto'laning sirti o'choqboshiga to'nkarib qo'yilgan ulkan doshqozonga o'xshardi, lekin men negadir Karbalo dashtida ko'rganim — karvon manzillarida bot-bot uchrab turadigan sardobalarni esladim, quloqlarim ostida tuya qo'ng'iroqlari jaranglayotgandek bo'ldi, qop-qora habash sarbon ko'z o'ngimda gandalandi, biday sahro — poyoni ko'rinmaydi...”. Keltirilgan parcha bevosita roviy-muallifning asar kechadigan joyga nistabatn badiiy-estetik munosabati va ana shu munosabat natijasida yerto'la-sardoba-karbon-sarbon-sahro semantik belgilar orqali shakllangan badiiy tasavvurini ifodalagan. Qissa xuddi mashhur kinolardagi (masalan, “O'tkan kunlar” filmi boshlanishidagi “Moziyga qaytib ish...” degan jumla bilan boshlanuvchi muallif gapiga o'xshash) bo'lgani kabi tashqi kompozitsiyadagi roviy-muallifning voqelikka shaxsiy pozitsiyasini anglatish bilan boshlaydi.

Qissaning kompozitsion tuzilishi, bo'limlar va voqea oqimining ichki bog'liqligi muallifning syujetni qanday qilib nutqiy-kompozitsion vositalar yordamida shakllantirish mahoratini belgilaydi. Nabijon Boqiyning “Bir muhabbat qissasi” asaridagi poetik birliklar: syujet, obraz, ramz, majoz, monolog, dialog kabilarning barchasi yaxlitlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Obrazlar kompozitsiyasi, syujet kompozitsiyasi va nutqiy kompozitsiya esa o'zaro aloqadorlik va ichki bog'lanish asosida yuzaga chiqqan. Shuning uchun ham roviy nutqida goh syujet kompozitsiyasi, goh obrazlar tuzilishi va munosabatiga oid bayon yoki roviy nutqiga personaj ichki nutqi (monolog) almashinishini kuzatish mumkin.

Qissa matnidagi nutqiy vositalar — dialoglar, monologlar, muallifning tavsifiy nutqi, ichki monologlar va epizodlar orasidagi aloqalar asar mazmunidagi obrazlar va ularning psixologik portretini chuqurroq anglashga imkon beradi. Badiiy nutqni tashkil qiluvchi muallif va personajlar nutqining o'zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy masalalaridan hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy asar tilini tahlil qilishda yozuvchining so'zga munosabati, so'z tanlash mahorati va o'rinli qo'llashi muhim bo'lib, so'zlarni ishlatishda uning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi. Bu haqda V. Vinogradov shunday deydi: “Badiiy asar tilini tahlil qilish asar g'oyasi bilan bog'liq hissiy mazmunni ifoda etuvchi lingvistik vositalarni ko'rsatib berishdir”. Haqiqatan ham, “badiiy asar tilining poetikligi, obrazlilik, tasviriylik asar g'oyasini, shuningdek, qahramon xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi”.

Qissa bosh qahramoni Jamolning quyidagi ichki nutqiga e'tibor beraylik: “Nimadir bo'ldi, — derdi Jamol o'ziga o'zi. — Nimadir bo'lishi kerak, — derdi u yurgan yo'lida. — Hammasi yaxshi bo'ladi, — derdi kechalar noxos uyg'onib ketsa. — Hammasi yaxshi bo'ladi!!!” yoki “U bo'zlay-bo'zlay sohil tomon yo'l oldi. — Ey, azim daryo, men gunohga botdim! — derdi Jamol! — Mening gunohimni yuvishga sening suving ham yetmaydi, daryo! Ey tog'lar, men gunohga botdim! — derdi Jamol. — Mening gunohimni ko'mishga toshlaring ham yetmaydi, tog'lar! Ey Quyosh, men gunohga botdim! Nega ustimga olov purkamayapsan, nega jism-u jonimni jizg'anak qilmayapsan axir, Quyosh?! — derdi Jamol. — Bilaman, mening gunohkor jismimni kuydirishga hatto sening ham qudrating yetmaydi, Quyosh!.. Meni tiriklayin otasharavani o'txonasiga tashlash kerak! Meni tiriklayin domna pechga tashlash kerak! Meni tiriklayin Yer yutishi kerak! Meni... Meni...” Mazkur parchalar bosh qahramon Jamolning ichki ruhiy holatini aks ettirsa, daryo, tog', quyosh kabi personajlarning Jamolga aytgan gaplari insonni har doim sabrli, chidamli bo'lishga chorlaydi. Tilshunos Sh. Safarov: “Nutqiy muloqot maqsadi ikki sathlidir, ya'ni nutqiy harakatda axborot almashish va kommunikativ pragmatik maqsad voqeealanadi.

Birinchisida so'zlovchining maqsadi axborot almashish", – deb ta'kidlaydi.

Qissada muallif nutqi voqealarning umumiy fonini yaratishda, tasviriy bo'yoqlarni belgilashda asosiy vazifani bajaradi. Nabijon Boqiy o'z hikoya uslubida samimiylik, hayotiylik va sodda ifodalarini qo'llab, o'quvchini asarga jalb etadi. Muallif nutqi orqali asar voqealari hayotiy haqiqat sifatida ko'rinadi, syujet voqealari o'zaro izchil bog'lanadi.

Muhokama va natijalar. O'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar kompozitsiyasi va nutqiy kompozitsiyaga oid bir qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularning ishlari shuni ko'rsatadiki, kompozitsiya nafaqat tashqi syujet qurilishini, balki ichki nutqiy tizimni ham o'z ichiga oladi. Nabijon Boqiyning "Bir muhabbat qissasi" asarida kompozitsion nutqiy vositalar yordamida muallif sevgi mavzusini faqat romantik hislar doirasida emas, balki ijtimoiy-falsafiy ma'noda ham yoritadi.

Qissaning asosiy kuchi qahramonlar nutqida namoyon bo'ladi. Har bir obrazning nutqi uning xarakteri, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalarini ochib beradi. Qahramonlar nutqi muallifning umumiy g'oyasini mustahkamlaydi, o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Jumladan, qissada personajlar nutqi asosiy qahramonlarning o'zaro muloqotda turli nutqiy uslublardan foydalanishlarini ta'minlaydi. Ularning so'zlash tarzi ularning xarakterini ochib berish vositasiga aylanadi. Masalan:

–"Dunyoning yukini yelkamda ko'tarib turgan men-ku, sen nega bo'zlaysan, Inson?! – dedi Tog'. Yoki – O'z yog'ida qovrilgan, o'z yog'ida dog'langan men-ku, sen nega bo'zlaysan, Inson?! – dedi Quyosh".

Qissada muallifning bevosita izoh va sharhlari mavjud bo'lib, ular asarning kompozitsion yaxlitligini ta'minlaydi.

Asardagi dialog va monologlar syujet rivojida dialoglar dramatik kuchni oshirsa, monologlar esa qahramonning ichki olamini ko'rsatishga xizmat qiladi. Demak, qissada nutqiy kompozitsiya nafaqat voqealarni tartibga soladi, balki personajlar psixologiyasini ochadi, sevgi mavzusini falsafiy ma'noga ko'taradi.

Nabijon Boqiyning "Bir muhabbat qissasi" asarida nutqiy kompozitsiya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Badiiy yaxlitlik yaratish – syujetning barcha qismlarini uyg'unlashtirib, asarning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

Obrazlarni jonlantirish – qahramonlar nutqi orqali ularning xarakteri va ichki olami yorqin ifodalanadi.

Emotsional ta'sirchanlik – nutqiy kompozitsiya o'quvchida hissiy taassurot uyg'otadi, qahramonlar bilan birga kechinma his etishga chorlaydi.

Estetik qiymat – nutqiy kompozitsiyaning rang-barangligi va uslubiy boyligi asarning badiiy darajasini belgilaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Nabijon Boqiyning ijodiy uslubi xalqona nutq elementlari bilan zamonaviy badiiy usullar uyg'unligida namoyon bo'ladi. Qissadagi nutqiy kompozitsiya o'zbek adabiyotidagi an'anaviy badiiy uslublarni davom ettirgan holda, yozuvchining shaxsiy kuzatuvlari va badiiy tajribasi bilan boyitiladi.

Xulosa. Nabijon Boqiyning "Bir muhabbat qissasi" asari o'zbek nasrida nutqiy kompozitsiyaning badiiy imkoniyatlarini keng namoyon etgan asarlardan biridir. Qissada muallif nutqi, qahramonlar nutqi va dialoglar o'zaro uyg'unlashtirib, syujetning yaxlitligi hamda obrazlarning tabiiyligini ta'minlaydi.

Nutqiy kompozitsiya bu asarda faqatgina voqealar bayonini emas, balki qahramonlarning ichki dunyosini ochish, ularning ruhiy kechinmalarini ifodalash, o'quvchini asar mazmuniga jalb etish vazifasini bajaradi. Muallifning xalqona tili, samimiy ifoda vositalari va obrazlar nutqining tabiiyligi qissaning emotsional ta'sirchanligini kuchaytiradi. Shuningdek, asarda nutqiy kompozitsiyaning badiiy funksiyasi o'zbek nasrida an'anaviy va individual uslublar uyg'unligini yaqqol ko'rsatib beradi. Yozuvchi xalq og'zaki ijodidan, milliy til boyligidan samarali foydalanib, o'zining o'ziga xos badiiy uslubini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Demak, "Bir muhabbat qissasi"dagi nutqiy kompozitsiya asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishda, qahramonlar obrazini jonlantirishda va o'quvchiga estetik zavq berishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Nabijon Boqiyning ijodini o'rganishda nutqiy kompozitsiya masalasini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

АДАБИЙОТЛАР

1. Hakimova M.A. Adabiyotshunoslikda badiiy asar tili va badiiy nutq uslubi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 3. March 2022.
2. Mo'minova T.S. O'zbek adabiyotshunosligida badiiy nutq masalalari. Orient Renaissance (Innovative, Educational, Natural and Social Sciences). 2023, № 3(6), sahifalar 513–519.
3. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 120.
4. Лотман, Ю. М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – С. 55.
5. Genette, G. Narrative Discourse: An Essay in Method. – Ithaca: Cornell University Press, 1980. – p. 35.
6. Nabijon Boqiy. Bir muhabbat tarixi / Rohila. – Toshkent: Anorbooks, 2022. – B. 44-188.
7. Виноградов В. О теории художественной речи. – М., 1971. – С. 105-211.
8. Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent: O'qituvchi. 2002. B.5-8
9. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: O'zME., 2008, – B.79.